

О‘ЗBEKISTONDA MASOFAVIY TA‘LIMNING SHAKLLANISHI VA HOZIRGI HOLATI

Yusupov Nurbekjon Xasan o‘g‘li

Samarqand iqtisodiyoti va servis institute

“Menejment” kafedrası Assistent

Xudoyqulov Suxrob

Olimjon o‘g‘li

Samarqand iqtisodiyot va servis institute

3-kurs „Menejment” talabasi

Annostatsiya: Ushbu maqolada masofaviy ta'limning o'ziga xos xususiyatlari va afzalliklari shundan iboratki, bunda metodologik va nazariy bilimlar tadqiqotning asosiy jihati sifatidat'kidlandi. Shu bilan bir qatorda izlanish xalqaro tajribaga va umumiy masofaviy ta'lim natijalarining tahliliy xususiyatlariga e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari masofaviy o'qitishning hozirgi holati va muammolari, masofaviy kurslarni yaratishning kontseptual asoslari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Masofaviy ta'lim, innovatsion ta'lim, masofaviy ta'limdagi muammolar, O'zbekistonda masofaviy(onlayn) ta'lim, ma'sofaviy ta'lim shaklida o'qitish tartibi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются особенности и преимущества дистанционного обучения, при этом методологические и теоретические знания выделяются как ключевой аспект исследования. Наряду с этим, особое внимание уделяется международному опыту и аналитическим характеристикам результатов дистанционного обучения. Кроме того,

анализируются текущее состояние и проблемы дистанционного образования, а также концептуальные основы создания дистанционных курсов.

Ключевые слова: дистанционное образование, инновационное обучение, проблемы дистанционного обучения, дистанционное (онлайн) образование в Узбекистане, порядок обучения в форме дистанционного образования.

Annotation: This article examines the specific features and advantages of distance education, emphasizing methodological and theoretical knowledge as the main aspect of the research. In addition, the study focuses on international experience and the analytical characteristics of general distance education outcomes. Furthermore, the current state and challenges of distance learning, as well as the conceptual foundations for developing distance courses, are analyzed.

Keywords: distance education, innovative education, challenges of distance learning, distance (online) education in Uzbekistan, procedures for teaching in the form of distance education.

Kirish qism. Bugungi kunda taraqqiyot juda tez rivojlanmoqda va o'zgarmoqda. Deyarli har daqiqada sayyoramizning turli burchaklarida o'zgarishlar, yangilanishlar va kutilmagan voqea hodisalar sodir bo'lmoqda. Har bir kunimiz kuchli yangilik oqimi ostida kechmoqda. Axborot oqimi bizni har joyda, uyda, ishxona va hattoki ta'tilda ham ta'qib etadi. Inson axborot ta'siridan holi normal faoliyat yurita olmaydi. Hayotni anglash, uni o'rganish axborotlarni yig'ish va o'zlashtirish orqali kechadi. Insonning bilimlilik darajasi ham ma'lum davr ichida shaxs tomonidan o'zlashtirilgan axborotlarning ko'p yoki ozligi bilan belgilanadi.

Asosiy qism. Masofadan o'qitishni tashkil etishni hozirgi zamon modellarining asosida kommunikatsiya va tarmoq texnologiyalari yotadi. Masofaviy o'qitish asosida ta'lim berish uchun o'qish istagida bo'lgan aholining muayyan qismini

ta'lim muassasasi joylashgan yerga yig'ish shart emas. Ikkinchidan, tinglovchi yoki o'quvchi tomonidan ortiqcha sarf - xarajat qilish zarurati bo'lmaydi. Uchinchidan, bu ta'lim turiga jalb qilinuvchilarning yosh cheklanishlarini istisno qilish mumkin. Masofaviy o'qitishga jalb qilinuvchi kontingentni quyidagi ijtimoiy guruhlarga mansub bo'lgan shaxslar tashkil qilishi mumkin:

1. ikkinchi oliy yoki qo'shimcha ma'lumot olish, malaka oshirish va qayta tayyorgarlik o'tash istagida bo'lganlar;
2. mintaqaviy hokimiyat va boshqaruv rahbarlari ;
3. an'anaviy ta'lim tizimining imkoniyatlari cheklanganligi sababli ma'lumot ola olmagan yoshlar;
4. o'z ma'lumot maqomini zamonaviy talablar darajasiga ko'tarish istagida bo'lgan firma va korxonalar xodimlari;
5. ikkinchi parallel ma'lumot olishni xohlagan tinglovchilar;
6. markazdan uzoqda, kam o'zlashtirilgan mintaqalar aholisi;
7. erkin ko'chib yurishi cheklangan shaxslar;
8. jismoniy nuqsonlari bo'lgan shaxslar;
9. harbiy xizmatda bo'lgan shaxslar va boshqalar.

O'zbekistonda masofaviy ta'lim. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktabrdagi 559-son qaroriga ko'ra, oliy ta'limda masofaviy ta'lim shakli joriy etilgan. Mazkur shakl bo'yicha o'qitish va bilim baholash jarayonlari to'liq raqamli platformalar orqali olib boriladi. Avlod media mavzuni tushuntiradi:

Masofaviy ta'lim faqat kunduzgi ta'lim shaklida mavjud bo'lgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari asosida tashkil etiladi. Bunda bir yo'nalishga qabul qilinadigan talabalar soni bakalavriat uchun 300 nafardan, magistratura uchun 30 nafardan oshmasligi kerak.

Oliy ta'lim tashkiloti masofaviy ta'limni tashkil etish uchun bir qator texnik va tashkiliy shartlarga javob berishi lozim. Xususan, ta'lim jarayoni maxsus o'quv platformasi — Learning Management System (LMS) orqali tashkil etiladi. Bu platformada talabalar uchun dars jadvali, o'quv fanlari, topshiriqlar va ularning baholash natijalari joylashtiriladi. Shuningdek, platforma avtomatik monitoring va identifikatsiya tizimlariga ega bo'lishi shart.

Xulosa. O'zbekiston sharoitida masofaviy ta'limni tashkil qilish katta samara beradi. Hozirgi davrda ta'limning bu turidan keng miqyosda foydalanish lozim. Xulosa qilib aytganda, bu ta'lim turini bir necha modellari mavjud, ular masofaviy ta'lim tashkil qilinishiga sabab bolgan vaziyatlari bilan farqlanadi: geografik sabablar mamlakatni kompyuterlashtirish va informatsiyalashtirish darajasi, transport va kommunikatsiyalar rivojlanish darajasi, masofaviy ta'lim uchun mutaxassislar mavjudligi, ta'lim sohasida informatsion va kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish darajasi, mamlakatning ta'lim sohasidagi odatlari.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdilkadimovna, K. N. (2021). Comparative And Linguocultural Analysis Of The Concept " Gender" In Uzbek And English Languages. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(06), 112-117.

2. Komilova, N. A. (2022, June). COMPARATIVE ANALYSIS OF LEXICAL VERBALIZERS OF THE CONCEPT "GENDER" IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES. In International Scientific and Current Research Conferences (pp.103-106).

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 03.10.2022 yildagi
559-son.

Internet saytlari

<https://lex.uz/docs/-6221502>

<https://avlodmedia.uz/article/1060/>

<https://uzmarkaz.uz/ru/news/masofaviy-talimning-afzalliklari-va-qulayliklari>